

AKADEMIK AZIZXON QAYUMOVNING IJODIY MEROSI

Bekmurodova Taxmina Tangir qizi

Termiz davlat universiteti o'zbek adabiyotshunosligi

yo'nalishi 1-bosqich magistranti

e-mail: taxminatangiroyva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11103216>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Akademik, navoiyshunos Azizxon Qayumovning biografiyasi, ijodiy va ilmiy merosi, ijodiy faoliyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Akademik, Azizxon Qayumov, ilmiy tadqiqot, ijodiy faoliyat, biografiyasi.

ACADEMICIAN AZIZKHAN QAYUMOV'S CREATIVE HERITAGE

Abstract. In this article, the biography, creative and scientific heritage of Academician, Navoiist Azizkhan Qayumov's creative activity is highlighted.

Key words: Academician Azizkhan Qayumov, scientific research, creative activity, biography.

ТВОРЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ АКАДЕМИКА АЗИЗХАНА КАЮМОВА

Аннотация. В данной статье освещены биография, творческое и научное наследие академика, навоиста Азизхана Каюмова.

Ключевые слова: Академик Азизхан Каюмов, научные исследования, творческая деятельность, биография.

Qo'qonlik mashhur o'qituvchi Po'latjon Qayumiy xonadonida 1926 yilning 19 yanvar kuni dunyoga kelgan Azizxon oilada uchinchi farzand, ikkinchi o'g'il edi. Bu ma'rifatparvar oiladan keyinchalik ikki mashhur adabiyotshunos yetishib chiqishi bejiz bo'lmagan. A. Qayumov Qo'qondagi 3-o'rta maktabda mohir muallimlar qo'lida tahsil ko'rish bilan birga, bolalikdan she'rga havasi tufayli O'zbekiston xalq shoiri Charxiy domlaga ham shogird bo'lgandi. II Jahon urushi yillarida O'rta Osiyo Davlat Universiteti (hozirgi O'zMU)ning sharq tillari fakultetiga o'qishga kiradi. Bu yerda ham Bertels, Arends kabi mashhur sharqshunoslardan ta'lim oladi. Akademik V. Yu. Zohidov yosh Azizxondagi iqtidorni ko'rgach, u hali talaba ekaniga qaramay, O'zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutiga ishga taklif qiladi va shu yerda u ish faoliyatini ilmiy xodim, ilmiy kotib bo'lib davom ettiradi. Keyinchalik Aziz Po'latovich fan, ta'lim va madaniyat sohasidagi turli yuqori lavozimlarda ishlagan yillarida doimo o'zbek fani, madaniyati va ma'rifati yo'nalishida halol va samarali ishlarni amalga oshirib bordi. O'zR FA H. Sulaymon nomli Qo'lyozmalar institutidagi ko'p yillik (1979–1998) rahbarligi davomida esa adabiy manbashunoslik va matnshunoslik sohasida o'ziga xos ilmiy maktab va muhit yarata oldi. Hozirda Respublikamizning turli ilmiy tadqiqot muassasalari va oliy ta'lim dargohlarida mehnat qilib, fan va maorif rivojiga hissa qo'shgan va qo'shib kelayotgan ko'plab olimlar chin ma'noda domlarning shogirdlaridir. Ustoz Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida yetakchi ilmiy xodim sifatida yoshlarga murabbiylik qilib va ilmiy jabhada o'rnak bo'lib kelgandir.

1954 yilda nomzodlik, 1962 yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan Azizxon Qayumov 1995 yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi etib saylandi.

Ustoz Azizxon Qayumov qamrovi keng olim edi. U adabiy merosimizning ko‘p asrlik sahifalari bilan yosh avlodni bahramand qilishdek ezgu maqsadni ko‘p yillardan beri amalga oshirgan. Azizxon Qayumovning ijodiy merosi juda katta salmoqli o‘rinni egallaydi. Jumladan:

1. Qayumov, A. Maxmur: O‘zbek adabiyoti tarixidan materiallar

Ushbu kitobda o‘zbek adabiyoti tarixidan materiallar berilgan, bunda shoir Maxmurning ijodiy merosi haqida ma’lumotlar berilgan

2. Qayumov A. G‘oziy / A. Qayumov; Muharir. P. Shamsiyev

Ushbu kitobda G‘oziyning ijodini o‘rganish haqida ma’lumotlar berilgan

3. Qayumov, A. Beruniy va adabiyot

Taniqli adabiyotshunos Aziz Qayumovning Beruniy va adabiyot risolasida buyuk olim va mutafakkir Abu Rayhon Beruniyning adabiyotga va san‘atga oid fikrlari, kuzatishlari, qarashlari bayon qilingan.

4. Qayumov, A. Saddi Iskandariy: Alisher Navoiy haqida.

Filologiya fanlari doktori, professor A. P. Qayumov ushbu risolada Alisher Navoiyning dostonnavislikdagi mahoratini hamda falsafiy fikrlarini ilmiy tahlil qilib bergan.

5. Qayumov, A. Alisher Navoiy: Ajoyib kishilar hayoti

Ushbu kitobda Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida lavhalar berilgan. Kitob keng kitobxon ommasiga mo‘ljallangan.

6. Qayumov, A. Farxod va Shirin sirlari: Ezgulik va sevgini ulug‘lovchi motivlar .

Ushbu kitobda Aziz Qayumovning Farxod va Shirin sirlari haqidagi ma’lumotlar berilgan.

7. Qayumov, A. Ishq vodiysi chechlari

Ushbu kitobda ulug‘ shoir Alisher Navoiyning “Layli va Majnun”, “Sab‘ai sayyor” asarlari o‘ziga xos ommabop tilda tadqiq etiladi.

8. Qayumov, A. Abu Rayhon Beruniy. Abu Ali ibn Sino.

Filologiya fanlari doktori Aziz Qayumov ushbu kitobini O‘rta Osiyolik ulug‘ olimlar Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino hayoti va ijodiga bag‘ishlagan.

9. Qayumov, A. Nazm va tafakkur quyoshi: Jomiy vafotining 500 yilligiga

1992 yilda ulug‘ shoir va mutafakkir, Alisher Navoiyning ustози va do‘sti Abdurahmon Jomiy vafotiga 500 yil to‘ldi. Mazkur risolada Jomiyning hayot yo‘li, uning Navoiy bilan hamkorligi va do‘stligi badiiy bo‘yoqlarda bayon etilgan.

10. Qayumov, A. Amir Temur qissalari.

Ushbu risolada Amir Temurga oid ba‘zi qo‘lyozma va toshbosma qissasalar to‘g‘risida so‘z boradi.

11. Qayumov, A. Ahmad Farg‘oniy: broshyura .

Buyuk bobokalonimiz Ahmad al - Farg‘oniy astronomiya, falsafa kabi aniq fanlar bo‘yicha o‘z davrida olamshumul ishlarni amalga oshirganlar. Mazkur kitobda bobomizning hayoti va ilm - fan sohasida amalga oshirgan ishlari haqida hikoya etadi.

Azizxon Qayumov domlaning milliy adabiyotshunosligimiz tadqiqiga munosib hissa qo‘shgan. Uning uzoq yillik izlanishlari uning 10 jild (12 kitob)dan iboratdir.

Umuman aytganda, akademik A. Qayumovning nashr etilgan jami kitob, risola va maqolalarining adadi 500 dan ortiq. Ustoz olim ilmiy kadrlar tayyorlash sohasida ham samarali ishlagan. Bir necha yil Qo‘lyozmalar instituti qoshidagi ixtisoslashgan kengashga raislik qilib,

juda ko‘plab munosib tadqiqot va olimlarning kashf etilishiga sabab bo‘ldi. O‘zi ham o‘ndan ziyod nomzodlik va doktorlik ishlariga rahbarlik qilgan.

Shuningdek, Azizxon domla iste‘dodli shoir ham edi. Uning “Aziziy” taxallusi bilan yozilgan ko‘plab she‘rlari, jumladan Navoiy g‘azallariga qilingan o‘nlab muxammaslari e‘tirofga sazovordir.

Biz Azizxon Qayumovning “Beruniy va adabiyot “kitobida astronomiya , matematika , geografiya , geodeziya , minerologiya sohalariga ulkan hissa qo‘shgan Beruniyni adabiyotchi sifatida tanishimiz mumkin bo‘ladi. Ushbu kitobda Beruniy o‘zining asarlarini badiiy parchalar bilan bezab , ularni jonli va qiziqarli bo‘lishiga katta ahamiyat berganligini ko‘rishimiz mumkin. Hamda bu kitobda bugungi pedagoglarimizning asosiy masalasiga aylanib borayotgan o‘quvchilarning diqqatini jalb etish masalasi bizdan necha asrlar oldingi kishilarni ham diqqatini tortgan.

Bu masala borasida Beruniy: “Bizning maqsadimiz o‘quvchini toliqtirib qo‘ymaslik , ha deb bir narsani o‘qiy berish zerikarli va toqatni toq qiladi. Agar o‘quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o‘tib tursa , u xuddi turli tuman bog‘-rog‘larda sayr qilgandek bo‘ladi” deb ta‘kidlagan . Yana bu kitobda Beruniy asarlarida adabiyot nazariyasi , nasr va nazmning kelib chiqishiga oid qimmatli ma‘lumotlar keltirilgan . Masalan , Beruniyning “ Geodeziya “ kitobining kirish qismida u insonning so‘zlash qobilyati , dunyoviy va diniy masalalar bo‘yicha bahs qilish odati nutq uchun “tarozu” bo‘lishini aytib o‘tgan . Biz yana ining bu asari orqali mantiq ilmining kelib chiqishi , hamda nasr va nazm esa shu limning uzviy qismlari ekanligini yozadi . Biz bu kitob orqali so‘zlashish qobilyati , nutq madaniyatini o‘rganishimiz mumkin . “Nutqning chin mohiyati uning mazmunidir” deb yozadi Beruniy. Azizxon Qayumovning bu kitobi orqali biz Beruniyning adabiyotga oid qarashlarining guvohi bo‘lishimiz mumkin .

2021-yil 25-yanvar kuni O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrasida tomonidan “Akademik Azizxon Qayumovning ilmiy-ijodiy merosi” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani bo‘lib o‘tdi.

Anjumanada so‘zga chiqqan adabiyotshunos olimlar akademik Aziz Qayumovning o‘zbek mumtoz adabiyotini o‘rganish, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo‘nalishlarini tadqiq etishga qo‘shgan hissasini yoritish ilmiy -ijodiy va pedagogik faoliyati, eng qadimgi davr yozma yodgorliklari, Alisher Navoiy ijodini o‘rganishning nazariy va uslubiy asoslari, Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlari hamda Aziziyning badiiy mahorati masalalarini o‘rganish xususida mulohaza bildirishdi.

REFERENCES

1. Qayumov ,A. Beruniy va adabiyot /A. Qayumov - Toshkent : G‘ofur G‘ulom nomidagi
1. Adabiyot va san‘at nashriyoti , 1974. -141 b.
2. Rahmatullayeva, I. Yor o‘ling bir-biringizga, ki erur yorlig ish!: [Qo‘qonlik akademik Azizxon Qayumov haqida] / I. Rahmatullayeva // Jannat makon. – 2008.
3. Qayumov, A. Asarlar . Qo‘qon adabiy muhiti.7-jild , 1-kitob .-Toshkent , “Mumtoz so‘z “,2010.
4. Tojiboyev, P. Komillikka intilish baxti: [Atoqli adabiyotshunos olim, fan arbobi, Qo‘qonlik Azizxon Qayumov hayoti va ijodi haqida] / P. Tojiboyev // Turkiston. – 2014